

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**X RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-  
FANI: INSON UCHUN  
INNOVATSION G'OYA  
VA YECHIMLAR**

**MAY, 2026**



**ISSN 3093-8791**

**ELEKTRON NASHR:**

<https://konferensiyalar.com>

**KONFERENSIYALAR** COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**YANGI DAVR ILM-FANI:  
INSON UCHUN INNOVATSION  
G'OYA VA YECHIMLAR**

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

**TOSHKENT-2026**

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**

X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 10-son (may, 2026-yil).– 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 26-may

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

**Barcha huquqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### TARIX FANLARI

*Erkinov Alisher*

BUXORO SHAHRINING TURAR-JOY MAHALLALARI, AHOLISI SONI VA  
ETNIK TARKIBI (XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARI) ..... 5-8

*Sheripova Mahliyo*

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA XIVA XONLIGINING MADANIY MUHITI VA  
KOMIL XORAZMIY FENOMENI ..... 9-14

*Yusupov Xamdambek*

XORIJ TARIXSHUNOSLIGIDA AFRIG'IYLLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI  
MASALASI: YONDASHUVLAR VA QARASHLAR ..... 15-19

*Xo'jayeva Inobat*

YANGI O'ZBEKISTON VA YUNESKO: MADANIY MEROS, TA'LIM VA  
BARQAROR RIVOJLANISH SOHASIDAGI STRATEGIK HAMKORLIK ..... 20-26

*Abdullayeva Shoxnoza*

XORAZM TANBUR CHIZIG'I — SHARQ MUSIQA MADANIYATIDA NOYOB  
NOTA YOZUVI TIZIMI VA UNING TARIXIY AHAMIYATI ..... 27-32

*Xakimov Mansurbek*

OROL FOJIASI – GLOBAL EKOLOGIK MUAMMO SIFATIDA ..... 33-40

*Xudoyorov Abrorjon*

"XORAZM HAQIQATI" GAZETASIDA QISHLOQ MEHNAT AHLINING URUSH  
YILLARIDAGI HAYOTI VA JASORATI MAVZUSINING YORITILISHI ..... 41-43

*Matchonova Nilufar*

AMUDARYO HAVZASIDA IJTIMOYIY TARIX VA EKOLOGIK O'ZGARISHLARNING  
O'ZARO TA'SIRI: EFTALIYLLAR DAVRI ANTROPOGEN LANDSHAFTLARI VA  
SOTSIO-EKOLOGIK MOSLASHUV (V–VI ASRLAR) ..... 44-49

### IQTISODIYOT FANLARI

*Иногамова Наира*

ЦИФРОВИЗАЦИЯ КАК ФАКТОР УСКОРЕНИЯ ПРОГРЕССА ПО ЦЕЛЯМ  
УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА ..... 50-54

### FILOLOGIYA FANLARI

*Begmatova Diloromkhan*

THE FUNCTIONAL ASPECT OF POLITICAL EUPHEMISMS IN DARI LANGUAGE  
NEWSPAPER TEXTS ..... 55-58

*Akbarova Ma'suma*

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KIYIM-KECHAK LEKSIKASINING LINGVOMADANIY  
TAHLILI ..... 59-61

*Isanova Feruza*

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY DISKURSIDA MODALLIK IFODASI:  
QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL ..... 62-67

### YURIDIK FANLAR

*Xushboqov Himoyiddin*

KIBERJINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DALILLARNI AUTENTIFIKATSIYA  
QILISHNING HUQUQIY MUAMMOLARI ..... 68-74

## **PEDAGOGIKA FANLARI**

*Xaydarova Namunaxon*

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM  
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI VA  
UNING ILMIY-METODIK ASOSLARI ..... 75-78

*Gulamov Shavkat*

TALABALARDA ILMIY DALILASH VA LOGIK ARGUMENTATSIYA QOBILIYATINI  
RIVOJLANTIRISH ..... 79-84

*Yalgasheva Zilola*

INKLYUZIV TA'LIM SHAROITIDA BO'LAJAK MAXSUS PEDAGOGLARNING  
USLUBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI ..... 85-87

*Rasulova Dilafruzxon*

XALQARO PEDAGOGIK ATAMALARNI O'QITISHDA KOMPETENSIYAVIY  
YONDASHUVNING NAZARIY ASOSLARI ..... 88-92

## XORIJ TARIXSHUNOSLIGIDA AFRIG'IYLAR SULOLASINING KELIB CHIQISHI MASALASI: YONDASHUVLAR VA QARASHLAR

**Yusupov Xamdambek Xamidjon o'g'li**

Ma'mun universiteti "Tarix" ta'lim yo'nalishi

1-kurs magistratura talabasi

Email: [khamdambek1994@gmail.com](mailto:khamdambek1994@gmail.com)

**Ilmiy rahbar: Rajapov Mardonbek**

Ma'mun universiteti Tarix kafedrasida dotsenti, PhD

Email: [mardonbekoff@gmail.com](mailto:mardonbekoff@gmail.com)

Urganch, O'zbekiston

**Annotatsiya.** Maqolada xorij tarixshunosligida Afrig'iylar sulolasining kelib chiqishi masalasi yuzasidan shakllangan asosiy yondashuv va qarashlar tahlil qilingan. Tadqiqotda xorij tarixshunosligida sulolaning kelib chiqishi bo'yicha uch asosiy yondashuv — eroniy nazariya, turkiy nazariya va skeptik yondashuv — ajratib ko'rsatilgan hamda har birining metodologik asoslari, dalillari va kamchiliklari ochib berilgan. "Afrig" atamasining etimologiyasi bo'yicha B. G'arib, P. Azkoyiy, J. Hiraviy, J. Mufrad kabi eronlik olimlarning qarashlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida sulolani poli-etnik xarakterdagi siyosiy tuzilma sifatida qarash maqsadga muvofiqligi xulosasiga kelingan.

**Kalit so'zlar.** Afrig'iylar sulolasi, Xorazm, xorij tarixshunosligi, etnogenez, Beruniy, eroniy nazariya, turkiy nazariya, oli Iroq, poli-etnik sulola, ilk o'rta asrlar.

## THE ISSUE OF THE ORIGIN OF THE AFRIGHID DYNASTY IN FOREIGN HISTORIOGRAPHY: APPROACHES AND VIEWS

**Yusupov Khamdambek Khamidjon ugli**

First-year Master's Student, History Program

Ma'mun University

**Scientific Supervisor: Mardonbek Rajapov, PhD**

Associate Professor, Department of History

Ma'mun University

Urgench, Uzbekistan

**Annotation.** The article analyzes the main approaches and views formed in foreign historiography on the issue of the origin of the Afrighid dynasty. The research is based on three main approaches in foreign historiography — the Iranian theory, the Turkic theory, and the skeptical approach — are distinguished, and the methodological foundations, evidence, and shortcomings of each are revealed. The views of Iranian scholars such as B. Gharib, P. Azkoyi, J. Heravi, and J. Mufrad regarding the etymology of the term "Afrigh" are comparatively analyzed. As a result of the research, the conclusion is drawn that it is appropriate to consider the dynasty as a political structure of a poly-ethnic character.

**Keywords:** Afrighid dynasty, Khwarezm, foreign historiography, ethnogenesis, Beruni, Iranian theory, Turkic theory, Al-i Iraq, poly-ethnic dynasty, early Middle Ages.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i10/n03>

## Kirish.

Xorazm vohasining ilk o'rta asrlar tarixini chuqur o'rganish bugungi tarix fanining eng dolzarb vazifalaridan biri sanaladi. Qariyb yetti asr davomida (305–995-yillar) hukmronlik qilgan Afrig'iyalar sulolasining kelib chiqishi, etnik mansubligi va siyosiy maqomi masalasi hozirgi kunga qadar tarixshunoslikda eng ko'p munozara qo'zg'atayotgan mavzular sirasiga kiradi. M.Q. Rajapovning "Afrig'iyalar sulolasi davri tarixshunosligi" nomli monografiyasi [1; B. 67–91] mazkur muammoga bag'ishlangan dastlabki yirik tarixshunoslik tadqiqotidir.

Afrig'iyalar sulolasining kelib chiqishi masalasi nafaqat oddiy genealogik izlanish, balki kengroq tarixiy-madaniy kontekstda ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan murakkab muammodir. Xorijiy tarixshunoslikda etnik kelib chiqish masalasini o'rganishda nazariy yondashuvlar muhim o'rin tutadi. M.Q. Rajapov V. Pol (W. Pohl), P. Giyari (P. Geary), F. Kurta (F. Curta), S. Brater (S. Brather) kabi G'arb olimlarining konsepsiyalarini batafsil tahlil qiladi [1; B. 68–70]. Mazkur tadqiqotchilarning qarashlari shuni ko'rsatadiki, etnik o'zlik o'zgarimas obyektiv kategoriya emas, balki ijtimoiy konstrukt bo'lib, u tarixiy jarayonlar davomida o'zgarib boradi.

M.Q. Rajapov tomonidan keltirilishicha, "Afrig'" atamasining etimologiyasi va tarixiy kontekstini o'rganishda asosiy tadqiqotlar zamonaviy Eron tarixshunosligida olib borilgan. Bu yo'nalishda B. G'arib, P. Azkoyiy, J. Hiraviy, J. Mufrad va T. Daryoyiy kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari muhim ahamiyatga ega [1; B. 72–74]. Biroq mazkur tadqiqotlarning aksariyati eronlik olimlar tomonidan amalga oshirilganligi sababli, masalaga nisbatan yondashuv va qarashlar ularning subyektiv xulosalariga bog'liq bo'lib qolgan.

B. G'arib sug'd tilidagi "frywn", "prywn" va "pryk" so'zlarining fors tilidagi shakli va ma'nolarini tahlil qilib, ularning "duo", "maqto'v" va "yuqori martabali" ma'nolarini anglatishini ko'rsatib o'tgan. P. Azkoyiy "Afrig'" nomini uch qismga ajratib tilshunoslik tahlilini amalga oshiradi: "af" — fors tilidagi "afrashtan" fe'lidan kelib chiqib, "ko'tarmoq" ma'nosini bildiradi; "ar" — "Aryan", ya'ni "oriylar"; "ig" esa eroniy tillardagi nisbat qo'shimchasidir. P. Azkoyiyning talqinicha, "Afrig'iyalar" so'zi "oriylar mamlakati"ni anglatadi [1; B. 72–73].

J. Hiraviy o'z tadqiqotlarida "Afrig'" atamasini sosoniylar davriga bog'laydi. Uning fikricha, Shopur I Xorazmdagi arshakiylarga qarshi isyonni bostirgach, bu hududni Afrig' ismli shaxsga topshirgan va unga "shoh" unvonini bergan. J. Hiraviyning talqiniga ko'ra, "Afrig'" so'zi "eronvix" (ya'ni "eronlik zot") ma'nosini bildiradi va oriylar nasliga borib taqaladi. J. Mufradning yondashuvi esa boshqacha: u "Afrig'" atamasining "Af/of/ob" (suv) va "rig/riz" (to'ldirish va to'kish) qismlaridan iborat ekanligini ta'kidlab, bu atama "daryoning quyi oqimida yashovchi odamlar" ma'nosini anglatishini qayd etadi. M.Q. Rajapovning baholashicha, aynan J. Mufradning yondashuvi ilmiy jihatdan eng asosli bo'lib, u Xorazmning geografik joylashuvi va Amudaryoning tarixiy roli bilan mos keladi [1; B. 73].

M.Q. Rajapovning monografiyasidagi eng muhim tarixshunoslik xulosalaridan biri shundan iboratki, xorij tarixshunosligida Afrig'iyalar sulolasining kelib chiqishi masalasiga oid uch xil asosiy yondashuv shakllangan [1; B. 78–90].

**Birinchi yondashuv — eroniy sulola nazariyasi.** Bu yo'nalish tadqiqotchilari sulolaning kelib chiqishini Eron bilan bog'laydilar va uning hukmdorlarining ismlarini eroniy tillardan kelib chiqqan deb talqin qiladilar. Fors va ingliz tilli tadqiqotlarning aksariyatida afrig'iyalar sulolasi eroniy sulola sifatida qayd etilgan va bunga dalil sifatida Beruniy ma'lumotlari keltirilgan. Bu yondashuv tarafdorlari sirasiga V. Zeldi, K. Kouts, R.N. Fray, S. Brentes, P. Azkoyiy, J. Hiraviy, T. Daryoyiy, S. Gulshaniy kabi olimlarni kiritish mumkin [1; B.

79–80]. V. Zeldi va K. Kouts afrig'ylarni “Xorazm xusravlari” deb atab, ularning kelib chiqishini Eronning afsonaviy hukmdori Siyovush avlodi bilan bog'laganlar. S. Brentes esa afrig'ylarni “Xorazm xusravlari” yoki “siyovushiyalar” deb atab, ularni qadimgi Eron mahalliy sulolasining bir tarmog'i sifatida ko'rsatgan.

M.Q. Rajapovning fikricha, eroniy nazariya xorijiy tadqiqotlarda keng tarqalishining asosiy sabablaridan biri — eronlik olimlarning faol ilmiy izlanishlari va ularning asarlarining ingliz, fransuz, nemis tillariga tarjima qilinib, keng ilmiy jamoatchilikka yetib borganligidir. Biroq arxeologik dalillar bu nazariyaga to'liq mos kelmaydi: Xorazm madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari va uning Eron sosoniylari madaniyatidan farq qilishi afrig'ylarning etnik kelib chiqishi haqidagi savollarni ochiq qoldiradi [1; B. 80].

**Ikkinchi yondashuv — turkiy sulola nazariyasi.** Bu yo'nalish tarafdorlari sulolaning kelib chiqishini Turk xoqonligi bilan bog'laydilar. Xitoy manbalarini tadqiq qilgan N.Y. Bichurin va E. Shavanlar islomdan avvalgi davrlarda hukm surgan Xosyun (Xorazm) viloyatining boshqaruvchilari “Chjaovu” sulolasidan ekanligini keltirganlar. Mashhur turkshunos Z.V. To'g'onning fikricha, afrig'ylar sulolasi aslida abdallar (eftaliylar) dan kelib chiqqan va ular o'zlarini qadimgi eroniy sulolaga mansub qilib ko'rsatishga harakat qilganlar [1; B. 81]. Sovet davri sharqshunosi O.I. Smirnova hamda zamonaviy o'zbek olimlari A. Otaxo'jayev va G'. Boboyorov Beruniy ro'yxatida keltirilgan ayrim ismlarning turkiy kelib chiqishiga asoslanib, afrig'ylar sulolasining turkiy ildizlarga bog'langanligi g'oyasini ilgari surganlar. G'. Boboyorov “Jamuk” so'zi turkiycha “javohir” ma'nosini anglatishini va ilk o'rta asrlarda Turk xoqonligida aslzodalar unvoni sifatida qo'llanilganini ko'rsatadi [1; B. 75–76].

Turkiyalik tadqiqotchi E. O'zjan fors oilasi boshqaruvi afrig'iy Bag'raning hokimiyat tepasiga kelishi bilan tugashi va ushbu hukmdordan boshlab Xorazmda turkiy sulola boshqarishini qayd etgan. K. Antiya o'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi musulmon hukmdorlar orasida qadimgi Eron podshohlaridan bir ajdodni da'vo qilish tendensiyasi kuchliroq bo'lganligini va buni “Xorazm maliklari” misolida ta'kidlagan. Hukmdorlar o'z hokimiyatlarini oqlash uchun ko'pincha afsonaviy yoki tarixiy shaxslarga o'z nasablarini bog'lashga harakat qilishgan, bu holat afrig'ylardan tashqari somoniylar va qoraxoniylar sulolasida ham kuzatilgan [1; B. 82].

**Uchinchi yondashuv — sulolani afsona sifatida talqin qilish (skeptik yondashuv).** Bu yondashuv tarafdorlari afrig'ylar sulolasining tarixiy mavjudligiga shubha bilan qaraydilar. Ularning eng ko'zga ko'ringan vakili — ingliz sharqshunosi K.E. Bosvort. Uning ta'kidlashicha, afrig'ylar haqidagi ma'lumotlarning deyarli barchasi Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asariga asoslangan bo'lib, bu asarning ishonchliligi shubha ostiga olinishi mumkin [1; B. 84]. K.E. Bosvort skeptik qarashlarini asoslashda “Afrig'” atamasi faqat Beruniy asarida uchrashi, keng qamrovli arxeologik qazishmalarda Afrig' nomi yozilgan birorta tanga topilmaganligi kabi dalillarga tayanadi. Biroq keyinchalik K.E. Bosvort o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqdi: yangi numizmatik tadqiqotlar natijasida u sulolaning mavjudligini tan oldi hamda uni oli Iroq (Iroq oilasi)ning oldingi ajdodi sifatida qayd etdi.

Zamonaviy rus tangashunoslari M. Fedorov va A. Kuznetsovlar dastlabki ishlarida sulola mavjudligiga shubha bilan qaragan bo'lsalar, keyinchalik yangi numizmatik manbalar topilishi natijasida o'z qarashlarini qayta ko'rib chiqib, sulolaning tarixiy mavjudligini tan olganlar. Turkiyalik tadqiqotchi A. O'zbayraktar esa Beruniy ro'yxatining ishonchliligi

masalasini boshqacha tahlil qiladi va Beruniy ro'yxati oli Iroq sulolasining legitimligini mustahkamlash uchun to'qib chiqarilgan, degan ilmiy farazni ilgari suradi [1; B. 85].

Yuqorida keltirilgan uch asosiy guruhdan tashqari, alohida o'ziga xos yondashuvlar ham mavjud. E.V. Rtveladze 2013-yili e'lon qilingan "O'zbekiston davlatchiligi tarixida Xorazm" nomli monografiyada Beruniy asaridagi ma'lumotlarga tanqidiy yondashuv asosida sulola tarixini o'rganishda yangi yo'nalish ochdi. Uning ta'kidlashicha, III asr oxiri — IV asr boshlariga oid tangalarda Vazamar nomi uchraydi va shu nuqtayi nazardan Vazamar bu Afrig'lar sulolasining dastlabki hukmdori hisoblanadi. E.V. Rtveladze afrig'iylar sulolasi nomini "vazamariylar"ga almashtirish taklifini ilgari suradi [1; B. 86]. Sh. Ismoilov esa afrig'iylar va ma'muniylar sulolarining na fors, na turk va na arab, balki qadimgi Xorazm xalqidan kelib chiqqan bo'lishi mumkinligi haqidagi farazni ilgari suradi [1; B. 87].

So'nggi yillardagi tadqiqotlarda "Afrig'iylar" atamasi o'rniga "oli Iroq" yoki "Banu Iroq" atamasi ko'proq qo'llanilmoqda. Eronlik tadqiqotchi S.A. Dovud oli Iroq sulolasining afrig'iylar bilan munosabati masalasida uch xil qarash mavjudligini ta'kidlaydi: birinchidan, oli Iroqni afrig'iylar sulolasining davomi sifatida talqin qilish (K.E. Bosvort, P. Azkoyiy); ikkinchidan, ma'muniylar va oli Iroqni bir sulola sifatida talqin qilish (E. Zambuar); uchinchidan, oli Iroqni alohida, yangi sulola sifatida talqin qilish (A. O'zbayraktar va J. Hiraviy) [1; B. 87–89].

Mavjud xorijiy tadqiqotlarning chuqur tahlili asosida M.Q. Rajapov muhim metodologik xulosaga keladi: har bir yondashuvda subyektivlik va bir yoqlamalik mavjud bo'lib, sulolaning etnik mansubligi masalasida yagona va qat'iy xulosaga kelish g'oyat qiyin. Muallif ushbu murakkab muammoning yechimini topish uchun sintez usuli va tarixiy modellashtirish metodini qo'llashni taklif etadi. M.Q. Rajapov fikricha, sulola etimologiyasida turkiy va eroniy unsurlarning uyg'unligini aralash nikohlar, madaniy almashinuv va siyosiy strategiya bilan izohlash mumkin [1; B. 83].

Beruniy asarida qayd etilgan Afrig'dan to Turksabasagacha bo'lgan hukmdorlar ismlarining eroniy va turkiy aralash (1–16-hukmdorlar), undan keyingi ismlarning esa islomiy (17–22-hukmdorlar) ekanligi sulolaning etnik tarkibida eron va turkiy unsurlar uyg'unlashganligidan dalolat beradi. Shu sababli, sulolani to'liq turkiy yoki eroniy sulola sifatida talqin qilish tarixiy haqiqatga ziddir. M.Q. Rajapovning xulosasiga ko'ra, ushbu o'rinda sulolani poli-etnik (aralash) sulola sifatida qarash maqsadga muvofiqdir [1; B. 90].

### **Xulosa**

Bugungi kungacha amalga oshirilgan tadqiqotlar Afrig'iylar sulolasining kelib chiqishi masalasi yuzasidan quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi. Birinchidan, mazkur masalada uch asosiy ilmiy yondashuv shakllangan: eroniy nazariya, turkiy nazariya va skeptik yondashuv. Ikkinchidan, har bir yondashuvda subyektivlik mavjud bo'lib, hech bir yo'nalish to'liq va yagona xulosaga kelmagan. Uchinchidan, M.Q. Rajapov tomonidan taklif etilgan sintez usuli va tarixiy modellashtirish yondashuvi mazkur masalada yangi metodologik istiqbol ochadi. To'rtinchidan, Afrig'iylar sulolasini poli-etnik (aralash) sulola sifatida qarash maqsadga muvofiqdir, chunki sulolaning shakllanishida eroniy, turkiy va mahalliy unsurlar birgalikda ishtirok etgan. Beshinchidan, monografiya o'zbek tarixshunosligida mazkur masalaga oid yangi tadqiqotlar olib borish, mavjud ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish va yangi ilmiy xulosalar chiqarish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Adabiyotlar/Literatura/References:**

1. Rajarov M.Q. Afrig'iylar sulolasi davri tarixshunosligi (XIX – XXI asrning 20-yillaridagi tadqiqotlar tahlili): Monografiya. – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2025. – 212 b.
2. Бируни Абу Райхан. Избранные произведения. Т.I, «Памятники минувших поколений». – Ташкент: Изд-во АН УзССР, 1957. – С. 72–80.
3. Bosworth C.E. Āl-e Afrīh // Encyclopaedia Iranica. – 1984. – № 7. – P. 743–745.
4. Frye R.N., Henning W.B. Additional notes on the early coinage of Transoxiana II // Museum Notes (ANS). – 1957. – № 7. – P. 23–40.
5. Ртвеладзе Э.В. Государство Вазамаридов (Афригидов) Хорезма // Хорезм в государственности Узбекистан. Коллективная монография. – Ташкент, 2013. – С. 90–100.
6. Бобоёров Ғ. Турк хоқонлиги даврида Хоразм // Хоразм тарихи замонавий тадқиқотларда. – Тошкент-Урганч, 2019. – Б. 50–52.
7. Heravi C., Özbayraktar A. Āl-i 'Irāk // İran Çalışmaları Dergisi. – 2023. – № 7. – S. 61–73.
8. Daryaei T., RezaKhani Kh. From Oxus to Euphrates: The World of Late Antique Iran. Vol. 1. – UK: H&S Media, 2016. – P. 9.
9. Curta F. Some remarks on ethnicity in medieval archaeology // Early Medieval Europe. – 2007. – № 15. – P. 159–162.
10. Ismailov Sh. Is the Khorezmshah Mamunids from Turkish Tribe or Arab? // EPRA International Journal of Socio-Economic and Environmental Outlook. – 2023. – № 10. – P. 7–8.
11. Ражапов, Мардонбек. "Труд Беруни «Осор ул-бакия» является важным источником для изучения истории эпохи афригов." Library 1 (2024): 122-125.
12. Rajarov, M. Q. (2024). TADQIQOTLARDA "XORAZMSHOH", "XORAZM MALIKI" VA "XORAZM XUSRAVI" ATAMALARINING QO'LLANILISHI. Academic research in educational sciences, (2), 569-571.
13. Rajarov, Mardonbek. "Xitoy manbalarida Afrig'iylar sulolasining yoritilishi." Жамият ва инновациялар–Общество и инновации–Society and innovations Special Issue 5.3 (2024): 271-277.
14. Rajarov, Mardonbek. "AFRIG 'IYLAR SULOLASI DAVRI TARIXSHUNOSLIGI (XIX–XXI asrning 20 yillaridagi tadqiqotlar tahlili)." (2025).
15. Mardonbek, R. (2024). SOME OBSERVATIONS ON THE HISTORY OF KHOREZM IN MIDDLE PERSIAN (PAHLAVI) SOURCES. Collection of scientific papers «SCIENTIA», (September 20, 2024; Bern, Switzerland), 158-161.
16. Rajarov, Mardonbek. "Afrig 'iylar sulolasi zamonaviy tadqiqotlarda: Yondashuvlar va muhim qarashlar." Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси 3, no. 4 (2024): 48-51.

# **YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR**

**X RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

**Mas'ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

**Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.**  
X Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.  
2-jild, 10-son (may, 2026-yil). – 93 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda  
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

**ISSN:** 3093-8791 (onlayn)

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2026-yil, 26-may

**Barcha huquqlar himoyalangan.**  
© Science problems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.